



## YUKSAK MA'NAVIYAT-YENGILMAS KUCH ASARIDA ZAMONAVIY IJTIMOY MUAMMOLAR

---

*Esirgapova Nargiza Obloqul qizi,*  
*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali*  
*Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi*  
*Norjigitova Xumora Norjigit qizi,*  
*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali*  
*Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich*  
*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi;*  
*e-mail: [jahongir.5066@gmail.com](mailto:jahongir.5066@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarining mazmun-mohiyati unda ilgari surilgan g'oyalar va zamonaviy ijtimoiy muammolar haqida tushunchalar ushbu muammolar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Qonunlar, nizomlar va ijtimoiy tizimlar, ijtimoiy hamkorlik, kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlar, siyosiy erkinlik va demokratiya, ijtimoiy muammolar.

**Abstract:** In this article, the content and essence of the work of the First President of the Republic of Uzbekistan, Islam Karimov, "High Spirituality - Invincible Power", the ideas put forward in it and the concepts of modern social problems are discussed.

**Keywords:** Laws, regulations and social systems, social cooperation, communication and social networks, political freedom and democracy, social problems.

### **Kirish.**

Bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayot bilan birga zamonaviy ijtimoiy muammolar hayotimizda juda ko'plab uchramoqda. Bu muammolardan eng muhimi hozirgi yoshlarning ommaviy axborot kommunikatsiya vositalaridan noto'g'ri foydalanish holatlarini ko'rishimiz mumkin. Ommaviy axborot vositalaridan eng muhimi sifatida internet olamini ko'rsatishimiz mumkin. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov bu asarda ommaviy axborot vositalarning zararli



ta`siridan farzandlarimizning ong-u tafakkurini himoya qilishda butun xalqimizning o`rni va roli muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o`tgan.

### **Asosiy qism**

Hozirgi kunda O`zbekiston jamiyatida eng asosiy zamonaviy ijtimoiy muammolar bu insonlarning va yosh avlodning ijtimoiy ma`naviy qiyofasini shakllantirish, ularga o`zbek xalqining boy ma`naviy meroslarini an`analari va qadriyatlarini mukammal bilishlari uchun shart – sharoitlar yaratishdir. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asari xalqimizning eng katta boyligi bo`lib, u o`zida ma`naviyat mazmunini to`la- to`kis mujassamlashtira olgan, yuksak namuna bo`la oladi. Ushbu asarda “ma`naviy tahdid tushunchasiga alohida e`tibor qaratilgan, hamda turli mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urilishi haqida fikr yuritiladi. Bunday hollarda insonlar balki butun yoshlarimiz ong-u tafakkuri va irodasini mustahkamlab uning paydo bo`lishini oldini olish mumkin.

Ma`naviyat haqida so`z borar ekan uning hozirgi yosh avlodlarimiz ongiga singdirish ularni yuksak ma`naviyatli qilib tarbiyalash maqsadga erishishning yagona ustuvor yo`li ekanligi aytib o`tilgan. Shuning uchun ham ta`lim, matbuot televideniya, ommaviy axborot vositalari va boshqa internet vositalari insonning tafakkuriga ta`sir qiladigan boshqa barcha sohalarda faoliyatni samarali tashkil etish va targ`ib qilish haqida ham fikr yuritiladi. ”Inson qalbiga yo`l avvalo ta`lim tarbiyadan boshlanadi”.<sup>1</sup> Shu bois ham yoshlarga ta`lim tarbiya berish jarayonida o`qituvchi pedagoglardan yuksak mahorat va har bir faoliyat turini to`g`ri va samarali olib borish talab etiladi. Yosh avlodni tarbiyalayotgan har bir shaxs eng avvalo yuksak ma`naviyatli va chuqur bilim tajribaga ega bo`lishi va o`z vazifasini muhim va mas`uliyatli deb hisoblashi asarda o`z ifodasini topgan. Xalqimiz orasidagi, ”Tarbiyachi avvalo o`zi tarbiya ko`rgan bo`lishi kerak “degan naql bejizga aytilmagan. Mutafakkir bobomiz Ibn Sino ham tarbiya beruvchilarga qarata, ”Kimga qanday pand-u nasixat qilsang, unga avvalo o`zing amal qil”-deydi. Bundan tashqari Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asarida kishidagi ijobiy fazilatlar uni doimo kamolot sari yetaklash, inson doimo o`z tarbiyasiga e`tiborli bo`lib yurishi zarurligi uqtiriladi.

Zamonaviy ijtimoiy muammolar, barcha sohalarda kasb-hunar, siyosat, madaniyat, oila va din manbalari orqali hal qilinadigan qonun-huquqiy maqbul javobgarliklar va hukumat qo`llab-quvvatlash tizimlari orqali yechiladi. Bu tizimlarning asosiy ko`rsatkichlari quyidagilardan iborat bo`lishi mumkin:

<sup>1</sup> I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat va yengilmas kuch” asari Toshkent: 2008y



Qonunlar, nizomlar va ijtimoiy tizimlar: Ijtimoiy muammolar uchun o'zaro kurash va yechishda tartibga solingan qonunlar va nizomlar juda muhimdir. Qonunlar muomolarni hal qilishni bajaruvchi organlar, sudlar, hokimiyatlar va o'rganuvchilar tomonidan ta'minlanishi va bajarilishi kerak;

Ijtimoiy hamkorlik: Muammolarga yechimlar topish jarayoni va harakatlari jamoat a'zolari, da'vohilar va ijtimoiy tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlashi kerak;

Kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlar: Muammolarni yechish uchun ijtimoiy tarmoqlar va axborot vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega;

Siyosiy erkinlik va demokratiya: Ijtimoiy muammolar o'zini talqin qiluvchi siyosiy erkinlik va demokratiya, asosan shaxsiy huquqlar, erkinliklar bilan bog'liq.

Prezidentimiz bu asarida ma`rifatparvar bobolarimizning ham zamonaviy ijtimoiy muammolarga oid fikrlarini ta`kidlab o`tgan. Bulardan buyuk ma`rifatparvar bobomiz Mahmudxo`ja Behbudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo`lur" degan fikrlari kiritilgan. Bunda Behbudiy dunyoda yashash uchun har bir inson dunyoviy va diniy bilimlardan xabardor bo`lishi, dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o`zlashtirishi, bunday ilmlardan xabardor bo`lmagan insonlar boshqa millat insonlari oldida uyatga qoladi degan fikrlarni ta`kidlagan.

"Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch asari"dagi zamonaviy ijtimoiy muammolar, zamonaviy jamiyatning rivojlanishi, texnologik o`zgarishlar, globalizatsiya va boshqa bir necha omillar bilan bog'liqdir. Bu muammo jamiyatimizda juda ham dolzarb bo`lib bormoqda, chunki uning hal qilinishi ma`naviyat va uning dalillari bilan bog'liqdir. Zamonaviy jamiyat, o`zining o`ziga xos muammolariga ega. Prezidentimizning bu "Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch asari" yuqoridagi zamonaviy ijtimoiy muammolar masalalarni yechishga qaratilgan. Barchamizga ayon bo`lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o`z holiga tashlab qo`yilsa o`sha yerda ma`naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi va aksincha qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo`lsa, o`sha yerda ma`naviyat yuksak va qudratli kuchga aylanadi.<sup>2</sup> Bunda qaysi jamiyatdagi inson jamiyatga beparvo va loqayd bo`lsa jamiyatdagi muammolarni o`z holiga tashlab qo`ysa ularga fikrlarini va mulohazalarini bildirmasa shu jamiyatning ma`naviyati ojiz bo`lib

<sup>2</sup> I.A.Karimov "Yuksak ma`naviyat va yengilmas kuch" asari Toshkent: 2008yil 116-bet



boradi. Shuning har bir inson jamiyatdagi muammolarni o'z muammolari sifatida qabul qilishi va ularga yechim topishi lozim.

Bir so'z bilan aytganda, "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asari"dagi zamonaviy ijtimoiy muammolar, jamiyatimizning rivojlanishining va insonlarning o'zini rivojlantirishi bilan bog'liqdir. Ularni hal qilish uchun bizga demokratiya, adolat, erkinlik, hurmat, muhabbat va rivojlanishga qaratilgan boshqa ma'naviy qadriyatlar va odatlarning ta'limi va amaliy tajribalar talab qilinadi. Shuningdek, asardagi muammolarni bartaraf etish uchun o'zbek xalqini o'z ma'naviyatini bilishi, unga alohida e'tibor berishi, madaniy an'analarini saqlashi va madaniy qadriyatlarini himoya qilishi juda ham zarurdir. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asarida, muhim bo'lgan yana bir narsa o'quv-tarbiya tizimini rivojlantirishdir. Shu bilan birga, bunday holatdagi muammolar yechilishida davlat tashkiloti, jamiyat va aholi tomonidan ham faol ishtirok etish zarur. Bundan tashqari, ma'naviyat va erkinliklar sohasidagi muammolar yechilishida ma'naviyatga e'tibor berish lozim. Bunda insonlar o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, adabiyoti va madaniy ahvoli va shu bilan birga xalqning ma'naviyatini o'rganishadi va shakllantirishadi.

"Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asari"dagi ijtimoiy muammolar qatorida eng muhimidan biri sifatida yana ommaviy madaniyatni olishimiz mumkin. "Ommaviy madaniyat" ma'naviy tanazzulning debochasidir. Uni targ'ib qiluvchilarning asl maqsad va niyatlari ham qaysidir millat yoki xalqni ma'naviy jihatdan inqirozga uchratish bilan yengishga qaratilgan. Chunki, turli yarim yalang'och suratlar, fahsh kinofilmlar, har xil bemaza o'yinlar odamlarda izlanish, yaxshilik sari intilish kayfiyatini yo'qotadi. Bularning yoniga ayrim saviyasiz xonandalarning maza-matrasiz qo'shiqlari, bema'no va hayosiz kliplarini ham aytishimiz mumkin. Shu o'rinda shuni ta'kidlashimiz kerakki bunday shaxslar o'zlari ma'naviy bilim va ko'nikmaga ega bo'lmay turib yosh avlodga qanday tarbiya bera oladi? O'zlari axloqli bo'lmay turib zurriyotlarimizga odob haqida o'rgata oladimi? degan savol tug'iladi. Bunda, odamlarning madaniy axloqiy qoidalar va asosiy qonunlar, erkinlik va boshqalar bilan adolatli munosabatda bo'lish, ijtimoiy va ma'naviy qadr-qimmatini ta'minlash talablari va hokimiyat yo'li bilan erkinlik va boshqalarning ishtirokini kuchaytirish muhimdir.

Shu bilan birga "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asari"dagi mavjud ijtimoiy muammolar jumladan; mehnat, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muammolar va hamkorlikning juda muhim bo'lganligini ko'rsatib beradi. Bu talablar har bir insonning ijtimoiy rivojlanishga, integratsiyaga va jamiyatning yuksak darajalarda hamkorlik qilishiga asos bo'ladi. Bu muammolarni hal qilishda xalqlararo aloqalarni



kuchaytirish, turli sohaga oid xalqaro to'qnashuvlar va muhim muammo va uning o'tkazish vaqti-vaqti bilan xalqaro hamkorlikning talablarini talab qiladi. Barchamiz qayerda, qanday lavozimda ishlamaylik jamiyatimizning insoniylik axloqiy aqidalarini paymol qiladigan tajavuzkorlik ko'rinishlariga qat'iy ravishda qarshi turishimiz lozim. Bunday munosabat jamoatchiligimiz, xalqimizga ham maqbul bo'lishiga ishonaman deb prezidentimiz o'z asarida ta'kidlab o'tgan. Har bir inson qaysi tashkilotda va jamoada ishlashidan qat'iy nazar, o'z manfaatlarini o'zgalarning manfaatlaridan ustun qo'ymasligi, o'zining qadriyatlarini saqlab qolishi va insoniylik xislatlarini namoyon qilishi hozirgi dolzarb bo'lgan ijtimoiy muammolarga o'z fikr va xulosalarini berishi kerak ekanligi haqida bayon qilinadi.

**Xulosa.** Prezidentimiz Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch asarida ijtimoiy muammolar va ularni bartaraf etish metodlari haqida aytib o'tilgan. Asarda zamonaviy ijtimoiy muammolar yuksak ma'naviyatni yaxshilash uchun muammolarni yechish xalqaro va boshqarish nazariyalarini o'rganish muammolarni maksimal darajada bartaraf etishga qaratilganligi haqida aytib o'tilgan. Bu asarda ko'pgina fikrlar bag'rikenglik, insoniylik, vatanparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Ommaviy madaniyat tushunchasi va u bilan bog'liq masalalar dunyoning barcha xalqlari va mintaqalari uchun umumiy ijtimoiy global muammo sifatida ta'riflangani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ishonamanki Vatanimiz yoshlari tengdoshlarimiz yuksak ma'naviyatli avlod sifatida ota-bobolarimiz qoldirgan buyuk merosga chinakkam merosxo'r bo'lamiz, chunki davlatimiz asoschisi I.A.Karimov qoldirib ketgan ma'naviy meros har bir yoshlarning qalbida jo'sh urib turadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
2. E.Yusupov, O'.Yusupov-Ma'naviyat kamolot va jamiyat taraqqiyoti. 1996-yil
3. Rizo Isfahoniy .Axloqnoma-T.:Yangi nashr, 2011-yil